




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 8584,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-iyun oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,* 98,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,3% ni tashkil etdi.

B- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C- Ishlab chiqaradigan sanoat

D- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

E- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi, % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 104,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 125,8 % ga o'sishi xizmat qildi.



Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 27,4 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 32,0 % ga pasayish kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 113,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'sish sur'ati, %



- Shag'al
- Texnik oltingugurt
- Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al qazib olish - 85,2 % ga o'sgan, shuningdek neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari - 26,9 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa 7,9 % ga pasaygan.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|-----------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Texnik oltingugurt, <i>tonna.</i> | 763,0 | 703,0 | -60,0 |

Shagʻal, *tonna.* 11927,0 22086,0 10159,0


| | | | |
|---|----------|----------|----------|
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, <i>mln. soʻm.</i> | 140390,4 | 102658,0 | -37732,4 |
|---|----------|----------|----------|




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8180,9 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,3 % ini tashkil etdi, oʻtgan yilning tegishli (mos yanvar-iyun oylarida) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 104,9 % ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




2019- yil




2020- yil

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019- yil yanvar-iyun oyida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,8 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 57,9 % (57,1 %) va quyi texnologiyalisi - 40,2 % (41,0 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,5 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 130,0 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,6 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,4 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 671,0 ming litr aroq (2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 3,9 % ga o'sgan), 399,9 ming tonna avtomobil benzini (12,8 % ga), 45,1 ming tonna mazut (20,3 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi shuningdek 344,5 ming tonna dizel yoqilg'isi (10,8 % ga) kamaygan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|------------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Aroq, ming litr. | 645,9 | 671,0 | 25,1 |
| Avtomobil benzini, ming tonna | 354,4 | 399,9 | 45,5 |
| Dizel yoqilg'isi, ming t. | 386,3 | 344,5 | -41,8 |
| Mazut, ming t. | 37,5 | 45,1 | 7,6 |
| O'simlik yog'i tozalangan, ming t. | 13,7 | 12,5 | -1,2 |


Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Paxta tolasi, <i>ming t.</i> | 45,0 | 54,2 | 9,2 |
| Paxta chigiti, <i>ming t.</i> | 68,5 | 88,5 | 20,0 |
| Un mahsuloti, <i>ming t.</i> | 41,1 | 46,6 | 5,5 |
| Suyiltirilgan propan va butan, <i>ming t.</i> | 5,5 | 6,3 | 0,8 |

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan) paxta tolasi (20,5 %) ga, paxta chigiti (29,2 %) ga, un (13,6 %) ga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek o'simlik yog'i 8,3 % ga kamaygan.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 234,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ini) tashkil etdi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2020- yil)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,8 % ga o'sganligi kuzatildi, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 31,6 % ga oshganligini shuningdek Issiqlik energiyasi 4,8 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln. kVt/s | 2,4 | 3,2 | 0,8 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal. | 501,7 | 477,6 | -24,1 |



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat ishlab chiqarish tahlili



2019- yil



2020- yil







Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 16,1 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 15,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm | 3978,8 | 4607,2 | 628,4 |
| Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – mln. so'm | 166,4 | 222,1 | 55,7 |

**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2969,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 34,6 % ni tashkil etdi.

2019- yil yanvar-iyun



Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil yanvar-iyun



Nooziq-ovqat mahsulotlari

2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 37,5 % dan 38,5 % gacha oshganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 20,4 % (iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 605,4 mlrd. so'm), Buxoro shahar 19,0 % (563,6 mlrd. so'm), Kogon tumani 10,5 % (312,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon(100,1 %), Olot (100,9 %), Vobkent (101,5 %) Qorovulbozor (111,1 %), tumanlarida qayd etildi.



Shahar va tumanlar kesimi bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi % da | 2019- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da |
|----------------------------|---------------|-----------------------------|---|
| Buxoro viloyati | 2969,5 | 100,0 | 95,3 |
| <i>shahar va tumanlar:</i> | | | |
| Buxoro shahar | 563,6 | 19,0 | 84,6 |
| Kogon shahar | 167,4 | 5,6 | 86,9 |
| Olot tumani | 64,7 | 2,2 | 100,9 |
| Buxoro tumani | 179,1 | 6,0 | 90,1 |
| Vobkent tumani | 157,5 | 5,3 | 101,5 |
| G'ijduvon tumani | 289,5 | 9,8 | 98,8 |
| Kogon tumani | 312,1 | 10,5 | 100,1 |
| Qorako'l tumani | 176,3 | 5,9 | 91,0 |
| Qorovulbozor tumani | 605,4 | 20,4 | 111,1 |
| Peshko' tumani | 58,9 | 2,0 | 77,1 |
| Romitan tumani | 115,6 | 3,9 | 100,0 |
| Jondor tumani | 150,6 | 5,1 | 91,1 |
| Shofirkon tumani | 128,8 | 4,3 | 92,6 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib 26,2 % ni, G'ijduvon tumanida 11,2 %, Qorako'l 11,1 % ni shuningdek Buxoro tumanida 8,8 % ni, ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (106,5 %), G'ijduvon tumanida (111,5 %) Qorako'l tumanida (113,6 %) ni, qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyun oyida)**

| | Mlrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi % da | 2019- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da |
|----------------------------|---------------|-----------------------------|---|
| Buxoro viloyati | 1144,3 | 100,0 | 101,8 |
| <i>shahar va tumanlar:</i> | | | |
| Buxoro shahar | 299,9 | 26,2 | 106,5 |
| Kogon shahar | 79,1 | 6,9 | 84,8 |
| Olot tumani | 30,2 | 2,6 | 101,0 |
| Buxoro tumani | 100,5 | 8,8 | 92,1 |
| Vobkent tumani | 60,7 | 5,3 | 99,2 |
| G'ijduvon tumani | 127,7 | 11,2 | 111,5 |
| Kogon tumani | 51,8 | 4,5 | 101,0 |
| Qorako'l tumani | 126,6 | 11,1 | 113,6 |
| Qorovulbozor tumani | 16,4 | 1,4 | 101,2 |
| Peshko' tumani | 35,2 | 3,1 | 95,9 |
| Romitan tumani | 52,2 | 4,6 | 101,7 |
| Jondor tumani | 94,8 | 8,3 | 99,4 |
| Shofirkon tumani | 69,1 | 6,0 | 95,9 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 32,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 14,5 % ni, Kogon tumani 14,3 % ni, hamda G'ijduvon tumani 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (91,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (111,4 %) va Vobkent tumanlarida (103,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-iyun oyida)**

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi % da | 2019- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % |
|----------------------------|---------------|-----------------------------|--|
| Buxoro viloyati | 1825,2 | 100,0 | 91,6 |
| <i>shahar va tumanlar:</i> | | | |
| Buxoro shahar | 263,8 | 14,4 | 68,6 |
| Kogon shahar | 88,3 | 4,8 | 88,8 |
| Olot tumani | 34,5 | 1,9 | 100,9 |
| Buxoro tumani | 78,6 | 4,3 | 87,7 |
| Vobkent tumani | 96,8 | 5,3 | 103,0 |
| G'ijduvon tumani | 161,8 | 8,9 | 90,6 |
| Kogon tumani | 260,3 | 14,3 | 100,0 |
| Qorako'l tumani | 49,7 | 2,7 | 60,5 |
| Qorovulbozor tumani | 589,0 | 32,3 | 111,4 |
| Peshko' tumani | 23,7 | 1,3 | 59,7 |
| Romitan tumani | 63,4 | 3,5 | 98,6 |
| Jondor tumani | 55,8 | 3,0 | 79,7 |
| Shofirkon tumani | 59,7 | 3,3 | 89,1 |



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 567,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 6,6 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish eng ko'p Kogon shaharda 188,1 mlrd. so'mni Kogon tumanida 179,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

| | Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi | Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi % |
|----------------------------|--|--|
| Buxoro viloyati | 567,9 | 6,6 |
| <i>shahar va tumanlar:</i> | | |
| Buxoro shahar | 91,5 | 9,5 |
| Kogon shahar | 188,1 | 46,3 |
| Olot tumani | 0,0 | 0,0 |
| Buxoro tumani | 16,6 | 7,7 |
| Vobkent tumani | 79,0 | 46,2 |
| G'ijduvon tumani | 1,2 | 0,2 |
| Kogon tumani | 179,5 | 41,6 |
| Qorako'l tumani | 5,1 | 1,9 |
| Qorovulbozor tumani | 0,8 | 0,1 |
| Peshko' tumani | 0,0 | 0,0 |
| Romitan tumani | 4,6 | 0,9 |
| Jondor tumani | 1,5 | 0,6 |
| Shofirkon tumani | 0,0 | 0,0 |



**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

| | 2020- yil yanvar-iyun mlrd. so'm | Fizik hajm indeksi % da |
|----------------------------|--|----------------------------|
| Buxoro viloyati | 8584,5 | 98,0 |
| <i>shahar va tumanlar:</i> | | |
| Buxoro shahar | 966,2 | 108,4 |
| Kogon shahar | 406,2 | 102,5 |
| Olot tumani | 234,5 | 100,1 |
| Buxoro tumani | 214,8 | 78,5 |
| Vobkent tumani | 170,9 | 116,5 |
| G'ijduvon tumani | 646,0 | 115,1 |
| Kogon tumani | 431,7 | 110,3 |
| Qorako'l tumani | 266,0 | 105,9 |
| Qorovulbozor tumani | 4176,8 | 117,7 |
| Peshko' tumani | 137,5 | 96,1 |
| Romitan tumani | 512,5 | 192,0 |
| Jondor tumani | 236,3 | 80,5 |
| Shofirkon tumani | 185,1 | 96,2 |




Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi % da

Jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 48,6 %), Buxoro shahar (11,3 %), G'ijduvon tuman (7,5 %), Romitan tuman (6,0 %), Kogon tuman (5,0 %) Qorako'l tumani (3,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Fizik hajm indeksi %da



Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Romitan tumani (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 192,0 %), Qorovulbozor tumanida (117,7 %) Vobkent tumanida (116,5 %) G'ijduvon tumani (115,1 %) hamda Qorako'l (105,9 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|------------------------|---------------------|-----------------------|
| Buxoro viloyati | 4452,1 | 1540,1 |


shahar va tumanlar:

| | | |
|---------------------|----------|---------|
| Buxoro shahar | 3443,3 | 2008,5 |
| Kogon shahar | 6637,9 | 2735,2 |
| Olot tumani | 2364,2 | 651,8 |
| Buxoro tumani | 1288,7 | 1074,2 |
| Vobkent tumani | 1222,4 | 1126,4 |
| G'ijduvon tumani | 2124,9 | 952,2 |
| Kogon tumani | 5513,5 | 3986,3 |
| Qorako'l tumani | 1623,0 | 1075,9 |
| Qorovulbozor tumani | 228239,9 | 33084,3 |
| Peshko' tumani | 1119,5 | 479,3 |
| Romitan tumani | 3616,5 | 816,1 |
| Jondor tumani | 1354,9 | 863,7 |
| Shofirkon tumani | 1043,8 | 726,5 |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2750,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib oʻz navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 32,0 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 97,8 % ga oʻsishi taʼminlandi.




Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,9 %), Romitan tuman (24,5 %), Kogon shahar (40,4 %) da sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3834 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1129 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,4 % i) Buxoro shahriga to'g'ri kelmoqda. 2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 508 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 96 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,9 %) Buxoro shahrida, 73 tasi (14,4 %) G'ijduvon tumanida, 45 tasi (8,9 %) Kogon tumanida tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda






Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 28 ta loyiha bo'yicha 553,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,1 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020- yil yanvar-iyun oylarida 235 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 13,8 martaga oshdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)

| | 2019-yil yanvar-iyun | 2020-yil yanvar-iyun |
|--|-------------------------|-------------------------|
| Loyihalar soni, <i>birlik</i> | 13 | 28 |
| Korxonalar soni, <i>birlik</i> | 8 | 25 |
| Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i> | 91,8 | 553,6 |
| Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i> | 0,3 | 2,1 |
| Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i> | 17 | 235 |

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (71) 230-83-05